



O'SMIR QIZLAR XULQ ATVORI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

¹Usmonov Sherzod Axmadjonovich

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi,

²Hakimova O'g'ilxon Nasimxon qizi

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistrant

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8001586>

ARTICLE INFO

Received: 26th May 2023

Accepted: 30th May 2023

Online: 31th May 2023

KEY WORDS

O'smir qizlar, ota-ona, yosh, tarbiya, ta'lim, individual xususiyatlar, qiyinchilik, muvaffaqiyat.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'smir qizlar xulq atvori shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va ulardagi individual o'zgarishlar tadqiq etilib, mavzu yuzasidan kerakli tavsiyalar, shuningdek, xulosalar berilgan.

Kirish. Ota-ona, o'qituvchilar va maktab amaliyotchi psixologlari uchun o'quvchi qizlarning o'smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazardan ham, pedagogik nuqtai nazardan ham muhimdir. Bu davrni biz yana "o'tish davri" ham deb ataymiz. O'smirlik davri asosan qizlarda 11-15 yoshni, ya'ni 5-8-sinf o'quvchi qizlarni o'z ichiga qamrab oladi. O'smir yoshdagi qizlarga ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi qiz bolalarning psixik rivojlanishi va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi.¹

Asosiy qism. Ota-ona go'zal va lozar qiz ulg'aytirar ekan, u bilan birgalikda ayrim qiyinchiliklarni bartaraf etadi, uning muvaffaqiyatlaridan quvonadi. Biroq vaqt o'tar ekan, yaqin orada bu qizaloq o'tish yoshidagi o'smir bo'lishini, kayfiyati tez-tez o'zgarib turishini, tengdoshlari bilan munosabatlarda muammolarga duch kelishi mumkinligini hamda intim gigiena masalalari ham borligini unutmasliklari kerak. Bu paytda qizalog'ining ayni qiyinchiliklarni yengishida ko'makchi bo'lmog'i lozim.

Shuningdek, qizlar organizmida qanday o'zgarishlar ro'y berishi haqida ham bir qancha ma'lumotlardan xabardor bo'lishlari shart. 11-12 yoshlarda qalqonsimon bez va gipofizda gormon ishlab chiqarish faollashadi. Bu jismning juda tez va noproportsional tarzda o'sishiga sabab bo'ladi. Qiz bola ko'zguning oldida ko'proq vaqt o'tkaza boshlaydi. U o'zidagi o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatadi va ko'pincha ulardan dahshatga tushadi. Shuning uchun har bir ota-ona farzandining tashqi ko'rinishi bilan bog'liq tanqidlarga ehtiyot bo'lmog'i lozim. Kayfiyatning tez o'zgarishi, jizzakilik va boshqa holatlar jinsiy gormonlarning qonga ko'p miqdorda qo'shilayotganligiga bog'liq, ayni shu sababli jismoniy o'zgarishlar ham kuzatiladi. Ajralayotgan gormonlarni hozircha bu qizaloq ishlata olmaydi. Shu sabab bu kuch jizzakilik, jahlning tez chiqishi, quloqsizlik kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ota-onalar

¹ E. G'oziyev. Umumiy psixologiya. (Yosh davrlari psixologiyasi). O'quv qo'llanma. T: 2008. 366-b



yodda tutishlari lozimki, o'tish yoshida farzandlarning buyrak osti bezi qobig'i faollashadi. Bu esa ular doimiy ravishda stress holatida bo'lishadi deganidir.

O'smir yoshdagi qizlarda o'g'il bolalarga nisbatan ertaroq o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo'yicha, o'smir qizlarning psixik taraqqiyotini xarakteratga keltiruvchi kuchlar - ularning faoliyatlari bilan tug'iladigan ehtiyojlar hamda bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir. Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotni, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik xususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Shundan keyin qizlarda psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o'tiladi. Yana shu nuqtai nazardan o'smirlik yoshini yanada oydinroq qarab chiqaylik. Bola boshlang'ich sinfni tugatadi. Bolaning o'rta maktabda o'qishga o'tishi uning hayotida burilish davri hisoblanadi. O'smirlarning yangi ijtimoiy jihatdan tashkil topgan va rang-baranglantirilgan faoliyati uning psixologik hamda shaxsiy tarkib topishiga asos, sharoit va vosita bo'lib xizmat qiladi. O'smir qizlarga ta'lim-tarbiya berishning yangi to'g'ri usullari hamda vositalarini topish uchun o'smirlik yoshining o'ziga xos xususiyatlarini, qizlarga xos bo'lgan jismoniy va psixologik taraqqiyotni yaxshi bilishimiz kerak. O'smirlik yoshining mazmuniy xarakteritsikasi vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi, chunki inson xayotining xususan ijtimoiy sharoitlari o'zgaradi.

Psixologlar o'smirlik davri taraqqiyotining ijtimoiy - biologik omillariga, o'smir qizlar ongiga og'ir, ba'zan kuchi yetmaydigan bo'lib tushadigan, ularni jiddiy psixik inqirozga [va hayajonga soladigan](#), masalan: o'smir qizlar uchun xarakterli bo'lgan chiroyidan norozilik, qo'pollik, qaysarlik, o'z-o'zini analiz qilishga moyillik, subyektiv olamga va shunga o'xshash xislatlarni keltiradigan jinsiy yetilishga nihoyatda katta ahamiyat beradilar. Jinsiy yetilish munosabati bilan paydo bo'ladigan yangi sezgilar, fikrlar, mayllar, kechinmalar go'yo o'smir qizlar ongida hukmron bo'ladi. Ular qiz bolaga xos bo'lgan o'ziga yarasha xulq-atvorni belgilaydi. Mana shu tariqa o'smir qizlarning psixologik qiyofalari asosan ijtimoiy - biologik omil deb qaraladi.

Boshqacha qilib aytganda, o'smir qizlar ijtimoiy sharoitlari rolini konkret hayot sharoitlari va faoliyatlarining rolga almashtirib bo'lmaydi. O'smir qizlarni ish, o'qish hamda sport mashg'ulotlari paytida to'g'ri va chuqur nafas olishga o'rgatish zarurdir. Bu narsa shuning uchun ham muhimdirki, bo'yni tez o'sishi organizmda modda almashishining jadallashishi bilan o'smir ko'p miqdorda kislorodga muhtoj bo'ladi. Bu yoshda o'smirning toza havoda bo'lishi ayniqsa muhimdir. O'smirlik yoshida yurak ikki baravardan ko'proq o'sadi, gavda esa bir yarim barobar o'sadi. Arteriyalari diametrining o'sishi yurakning o'sishidan orqada qoladi. Qon tomirining yo'li yurak hajmiga nisbatan kamayadi va bu nerv qalqonsimon bezlari faoliyatining kuchli darajada tezlashuvi bilan birgalikda qon bosimining ortishiga va yurak faoliyatining kuchayishiga olib keladi. Qon tomirlarining sistemasidagi o'zgarishlari natijasida ba'zan bosh miyaga boradigan qon yetarli bo'lmay qolishi mumkin. Bu esa bosh miya ish qobiliyatining susayishiga, tez toliqishiga va bosh aylanishiga olib keladi. Ba'zan o'smir tashqi ko'rinishining o'zgarib turishini kuzatish mumkin. O'smirning qo'l va lablari ko'karib ketadi, ba'zan esa uning yuzi qizarib ketadi yoki bo'zaradi. O'smirning yuragini haddan tashqari ko'p nagruzka va toliqishlardan saqlash kerak.



Mana shu yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, aynan o'smir qizlarning yoshi va ularning individual xususiyatlari absolyut ahamiyat kasb etmaydi. Shu munosabat bilan o'smirlik yoshi mutloqo aniq, ma'lum va absolyut chegara hamda xarakteristikaga ega emas desak to'g'ri bo'ladi.

Xulosalar. Mazkur tadqiqot ishida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'smir qizlar yangi yosh bosqichi ularni katta maktab yoshiga o'tishga tayyorlaydi. O'smirlik yoshi qizlar shaxsining tarkib topish jarayonida alohida o'rin tutadi. Bu davr ularga asosiy davr hisoblanadi. Chunki bu yoshda g'oyat muhim psixologik o'zgarishlar paydo bo'ladi. Har xil psixologik o'zgarishlar va shaxsning taraqqiyoti, eng avvalo, mana shu qizlarning faoliyat xarakteriga bog'liqdir. O'smir qizlarning faoliyati o'qish, mehnat va o'yin jarayonlarini o'z ichiga oladi.
2. O'smir qizlar kichik maktab o'quvchilaridan farq qilgan xolda birinchi bo'lib ilmiy bilishda ishtirok etadi. Uning oldida birinchi bo'lib olish faqat ayrim narsa va hodisani emas, balki barcha narsa va hodisalar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni tushunish uchun ishlatiladi. Agar kichik maktab yoshi asosan narsalar, tabiat va jamiyat hodisalari to'g'risida tasavvurlar to'plashdan iborat bo'lsa, o'smirlik yoshida ana shu tabiat va jamiyat hodisalar to'g'risida sistematik tushunchalar paydo bo'ladi.
3. Beshinchi va ayniqsa, oltinchi sinfga kelib fizika, algebra, geometriya, tarix fanlari o'tila boshlanadi. Abstrakt tafakkur tez o'sa boshlaydi. O'quvchi qizlar hodisalarning sabablarini tushunishga, hodisalarni ma'lum qonuniyatlar doirasida ifodalashga, bu qonuniyatlardan foydalanishga intiladilar.
4. O'smirlik yoshining rivojlanishiga ko'proq mehnat faoliyati ta'sir ko'rsatadi. Shu tufayli qizlarning o'smirlik yoshida mehnat ancha uyushqoqlik xarakterida bo'ladi.
5. O'smir shaxsining tarkib etishida o'yin ahamiyatini yo'qotmaydi. O'smir qizlarda ham o'yin o'smirlik yoshida yuksak axloqiy tuyg'ularning, irodaviy xarakter xislatlarning o'sishiga yordam beradi. O'yin o'smir qizni intizomli bo'lishga o'rgatadi, o'ylashga, fahmlashga, eslab qolishga biror narsani qilishdan oldin planlashtirishga va diqqatli bo'lishga da'vat etadi.

Tavsiyalar. Olingan natijalar, xulosalar asosida quyidagi tavsiyalarni keltirib o'tishni joiz deb hisoblaymiz.

1. O'smirlik kollektivi boshlang'ich sinf o'quvchilari kollektiviga qaraganda maktabda ham, uyda ham butunlay boshqa o'rin tutishini unutmashimiz kerak bo'ladi;
2. O'smir qizlar shu yoshning dastlabki davrlarida oldin o'zlashtirgan bilimlari asosida yangi bilim olishga yo'naltirilishi va bu ham maktabda o'qituvchi, ham uyda ota-ona tomonidan nazorat qilib turilishi zarur;
3. O'smirlik yoshiga yetganda ayniqsa qiz bolalarda burch va javobgarlik tuyg'ulari yetarli darajada o'sgan bo'ladi. Bolalar o'zlari ongli ravishda tanlashga qobil bo'lib qoladi. Mana shu davrda kattalar bolalarga "bemalol ish topshirishni ishonishlari", o'smirlarni oilada "kichkina" deb hisoblamay ulardan xo'jalik ishlariga yordam berishni, topshirilgan ishga javob berishni talab qilishlari kerak. Bu ularning ortiqcha chalg'ishlarini oldini oladi va ularda mas'uliyatlilik hissini mustahkamlaydi;
4. O'smir qiz va ona o'rtasida yaqinlik bo'lishi kerak. U bilan do'stona va yumshoqlik bilan munosabat o'rnatishi va bu orqali qizining har bir harakatidan xabardor bo'lib turishi kerak.



Negaki bu davr uning hayotida ham fiziologik, ham psixologik jihatdan katta burilish, tub o'zgarishlar davri hisoblanadi;

5. Bu davrda o'smir qizga yaqinlari tomonidan yetarlicha e'tibor va mehr-muhabbat berish talab etiladi. Chunki ayni paytda ularda e'tirof etilish, alohida maqtalish, tan olinishga ehtiyoj har doimgidan yuqoriroq bo'ladi. Aks holda o'z istagan munosabatini oilasidan, yaqinlaridan ololmagan o'smir qiz endi o'ziga kerakli e'tiborni tashqaridan izlashga "majbur bo'ladi". Bu turli ko'ngilsiz holatlar va xulqiy og'ishlar keltirib chiqarmasligini istaydigan har qanday ota-onaga tavsiya berardimki, farzandlarining porloq iqboli uchun ularga alohida vaqt ajratsinlar, ular bilan samimiy va do'stona munosabat o'rnatinlar.

O'ylaymanki, Vatanimizda istiqomat qilayotgan har bir inson farzandlar tarbiyasida yuqoridagi fikrlarga diqqat-e'tiborli bo'lishadi va bu bilan avvalo, o'zining oilasida, qolaversa jamiyatimiz orasida sog'lom psixologik ruhiyat barqaror bo'lishiga o'z hissasini qo'shishadi.

References:

1. Haydarov. S. G'oziev E. O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 104 b.
2. G'oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi): Psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 266-b.
3. Sherzod Axmadjonovich Usmonov, Aloxon Arabjon qizi Xoldaraliyeva //TALABA YOSHLARNI TOLERANTLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK TAMOILLARI// ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2021. 73-77 pages.
4. Usmonov Sherzod Axmadjonovich, & Abduhamidov Murodjon To'lqinjon o'g'li. //PRACTICAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN STUDENTS// Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. Vol.10, № 7. 2022. 180-183 pages.
5. Usmonov, S., Tojimamatov, J. (2022). //O'QUVCHI YOSHLARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI// *Евразийский журнал академических исследований*, 2(7), 139-143 pages.
6. USMANOV SH., ABSALOMOV E.U. //IMPROVEMENT OF TOLERANT CULTURE IN THE FAMILY// THEORETICAL & APPLIED SCIENCE. Vol 1(81), 2020. 674-676 pages.
7. Усмонов Шерзод Ахмаджонович, Закирова Мухаббат Сабировна, Нуриддинов Расулжон Самитжон ўғли //ИЛК ЎСПИРИНЛИК ДАВРИДА АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ// [СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ \(УЗБЕКИСТАН\)](#). № 9 (106), 2021. 12-16 стр.
8. Usmonov Sherzod Axmadjonovich //AN EMPIRICAL STUDY OF THE EFFECT OF MENTAL ABILITIES ON STUDENT ACHIEVEMENT// American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. VOLUME 02, ISSUE 12. 2022. 125-132 pages.
9. Усмонов Шерзод Ахмаджонович //ТАЛАБАЛАРДАГИ АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ ЕТАКЧИ СИГНАЛЛАР ТИЗИМИГА БОҒЛИҚЛИГИНИ ЎРГАНИЛИШИ// Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2022 йил №7. 328-333 betlar.
10. Usmonov Sherzod Axmadjonovich, Xalimova Xumora Zokirjon qizi. (2022). //SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ETHNIC IDENTITY// *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 135-140 pages.



11. Usmonov Sherzod Axmadjonovich, Kadirov Hasanboy Nizamjon ugli. (2022). //STUDY OF THE PROBLEM OF CREATIVE ABILITY BY WORLD PSYCHOLOGISTS// *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 164-172 pages.
12. Usmonov Sherzod Axmadjonovich, Abdullayeva Muslimaxon Muzaffarxon qizi. (2022). //APPEARANCE OF SOCIAL PHOBIA IN ADOLESCENCE AND ITS NEGATIVE CONSEQUENCES// *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 129-134 pages.
13. Usmonov Sherzod Axmadjonovich, & Musayev Jumavoy Mirzaolim o'g'li. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF STUDENTS. *Conference Zone*, 775-780.
14. Usmonov Sherzod Axmadjonovich. //EMPIRICAL ANALYSIS OF THE IMPACT OF SOCIOPSYCHOLOGICAL FACTORS ON MASTERY INDICATORS IN STUDENTS// *European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA)*. Vol. 3No.2, February 2022. 5-11 pages.
15. Usmonov Sherzod Axmadjonovich, Khakimova Ugilkhon Nasimhon qizi. (2022). //SOCIO-PSYCHOLOGICAL BASIS FOR THE MANIFESTATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS// *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(6), 65-67.
16. Usmonov Sherzod Axmadjonovich. (2022). //PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGIC FACTORS INFLUENCING STUDENTS' LEARNING ABILITY// *Conference Zone*, 767-774.
17. Usmonov Sherzod Axmadjonovich, Mamaziyayeva Charosxon Mirzamirovna. (2022). //SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORMING POSITIVE ATTITUDES IN STUDENTS OF JUNIOR SCHOOL AGE// *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 341-344 pages.
18. Usmonov Sherzod Axmadjonovich, & Nishonov Islomjon Ilhomjon o'g'li. (2022). //THE INFLUENCE OF MASS MEDIA ON HUMAN PSYCHOLOGY// *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 345-348 pages.
19. УСМОНОВ Ш.А //PROBLEMS AND SOLUTIONS WITH WORKING ABILITY CHILDREN// Материалы международной онлайн научной-практической конференции: ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОЦВЕТАНИЯ ОБЩЕСТВА. Екатеринбург - Фергана, 20 мая 2020 года. 177-179 стр.
20. УСМОНОВ Ш.А //OPPORTUNITIES WITH WORKING ABILITY CHILDREN IN EDUCATION// Материалы международной онлайн научной-практической конференции: ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОЦВЕТАНИЯ ОБЩЕСТВА. Екатеринбург - Фергана, 20 мая 2020 года. 298-300 стр.
21. УСМОНОВ Ш.А //РАЗВИТИЕ ТОЛЕРАНТНОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЁЖИ// АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. Сборник материалов IX-й международной научно-практической конференции. Липецк, 28 декабря 2015 года. 9-12 стр.
22. СОЛИЕВ ФАРХОДЖОН СОДИКОВИЧ, АБДУЛЛАЕВА АРОФАТХОН РУСТАМОВНА, ДЖУХОНОВА НОХИДА ХАЁТЖОНОВНА //ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ЭТНОЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ// Материалы Международной заочной научно-практической конференции:



ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ СОВРЕМЕННОГО ЧЕЛОВЕКА. Екатеринбург, 2019. 334-339 стр.

23. **Ostanakulov Alijon Dadajon ugli, Gulnora Ergasheva** //THE STATE OF STUDYING THE PROBLEM OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENCE// *Gospodarka i Innowacje*, [Vol. 33 \(2023\)](#). 159-163

24. Ostanakulov Alijon Dadajon ugli, Tojimatova Gavharoy Gulomjonovna //SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE ORIGIN OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS// *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities*. Volume-10| Issue-12| 2022. 215-222 pages.

25. Ostanakulov Alijon Dadajon Ugli //THE HISTORY AND ROLE OF ISLAM AND PSYCHOLOGY IN THE EDUCATION SYSTEM IN CENTRAL ASIA// *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*. Volume 2, Issue 4. April, 2021. 279-277 pages.